

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti
Akademik kengashining
2024 yil "14" 11 / 3 -son bayyonomasiga
5-5-E -ilova

**Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetining
"Lider qizlar" klubi to'g'risida
N I Z O M**

1-bob. Umumiy qoida

1. UMED Lider qizlar klubi (keyingi o'rinlarda – Klub) Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti (keyingi o'rinlarda – Universitet) bazasida faoliyat yurituvchi jamoat tashkilotidir. Klub Universitet Xotin-qizlar Maslahat kengashiga hisobot beradi.
2. Klub o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar, shuningdek, Universitet Xotin-qizlar Maslahat kengashi qarorlari va Universitetning ichki hujjatlariga amal qiladi.
3. Klub o'z faoliyatini Universitet fakultetlari, o'quv, ilmiy, ma'naviy-ma'rifiy va boshqa bo'linmalar bilan hamkorlikda amalga oshiradi.
4. Klub faoliyatining moliyalashtirilishi Universitet mablag'lari yoki qonun bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.
5. Klub o'z ramzlariga ega bo'lib, unda Universitetga tegishlilik ko'rsatiladi.

2-bob. Klubning asosiy maqsadlari, vazifalari va funksiyalari

6. Klubning asosiy maqsadi – Universitetning intellektual rivojlangan, maqsadga intiluvchan va iqtidorli, yetakchilik salohiyatiga ega bo'lgan talaba-qizlari, magistrantlari va doktorantlarini birlashtirish orqali BMTning Barqaror rivojlanishning 5-maqsadiga erishishga hissa qo'shishdir.

7. Klub faoliyatining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- Universitetdagi barcha ayollar va qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish hamda gender tengligini ta'minlash;
- Qizlarda o'z qo'rquv va shubhalarini yengib o'tish, kelajakdagi kasbiy faoliyatda o'z qobiliyatlarini qat'iyat bilan namoyon qilish ko'nikmalarini shakllantirishga yordam berish;
- Universitetning talaba-qizlari, magistrantlari va doktorantlariga o'z iqtidorlarini o'quv, ilmiy va ijtimoiy faoliyatda amalga oshirishga ko'maklashish;
- Universitetning talaba-qizlari va yosh o'qituvchi-professorlarining faoliyatga motivatsiyasini qo'llab-quvvatlash;
- Mentorlash dasturlari orqali ularga xalqaro stajirovkalar, stipendiyalar, startaplar va loyihalarni amalga oshirish uchun turli grantlar olish imkoniyatlarini yaratish va Universitet rahbariyati bilan hamkorlikda ushbu qo'llab-quvvatlashni ta'minlash;
- Milliy, mintaqaviy va xalqaro konferensiyalar, treninglar va boshqa tadbirlarda volontyor sifatida qatnashishlariga jalb qilish;
- Universitetda yetakchilik salohiyatiga ega bo'lgan iqtidorli qizlar sonini oshirish, ular Universitet, tuman, shahar, respublika va xalqaro darajada o'tkaziladigan turli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda faol ishtirok etishlariga ko'maklashish;
- Talaba-qizlarning ilmiy salohiyatini oshirish, ularni universitet va oliy ta'limdan keyingi ilmiy faoliyatga jalb qilish, turli ilmiy konferensiyalarda ishtirok etishlariga va maqolalarini respublika va dunyoning yetakchi universitetlari to'plamlarida chop ettirishga ko'maklashish;
- Klubning O'zbekistonda akkreditatsiyadan o'tgan xalqaro diplomatik korpus va vakillik tashkilotlari bilan (mamlakat ichida va tashqarisida) xalqaro hamkorligini mustahkamlash;

- Klub a'zolariga ommaviy nutq mahorati, diplomatik muzokarlarda ishtirok etish, jumladan moderator sifatida qatnashish bo'yicha ko'nikmalarni rivojlantirishda yordam ko'rsatish.

8. Belgilangan vazifalarni bajarish uchun Klub quyidagi funksiyalarni bajaradi:

a) Iqtidorli lider qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish sohasida:

- Universitet bo'linmalari bilan birgalikda turli mukofotlar, imtiyozlar va boshqa rag'batlantirish turlariga nomzodlarning ro'yxatini shakllantiradi;
- Universitet Xotin-qizlar maslahat kengashi bilan hamkorlikda yetakchi olimlar, ommaviy axborot vositalari vakillari, shu jumladan mahalliy televideniye yetakchi spikerlari ishtirokida seminarlar, treninglar, davra suhbatlari, mahorat darslari va konferensiyalar tashkil qiladi.

b) Qizlar yetakchiligini rivojlantirish sohasida:

- Universitet rahbariyatiga Klubning qiz yetakchilari ishtirokini konferensiyalar, davra suhbatlari, xalqaro simpoziumlar va Universitet yoki xalqaro tashkilotlar doirasida tashkil etiladigan boshqa tadbirlarda moderator sifatida qatnashishini taklif qiladi;
- Klub a'zolarining ta'lim jarayonida universitet o'qituvchilarini ham ishtirok etishlarini targ'ib qiladi va rag'batlantiradi.

v) Xalqaro hamkorlikni mustahkamlash sohasida:

- Universitet Xotin-qizlar Maslahat kengashi bilan hamkorlikda O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi, Dipservis xizmati, elchixonalar va O'zbekistonda akkreditatsiyadan o'tgan diplomatik vakolatxonalar bilan qizlar yetakchiligi masalalari bo'yicha hamkorlikni amalga oshiradi;
- Universitetning ilmiy bo'limi bilan birgalikda Klub a'zolariga turli grantlar olish va xalqaro loyihalarda ishtirok etishda ko'maklashadi;
- Universitet Xotin-qizlar Maslahat kengashiga Klub a'zolari ro'yxatini taqdim etadi va Universitet rahbariyati huzurida lider qizlar hamda ularning

rahbarlarini O'zbekiston Respublikasi diplomatik vakolatxonalari va konsullik idoralarida xorijdagi stajirovkalarda va tajriba almashish dasturlarida ishtirok etish uchun tavsiya etadi.

3-bob. Klubga a'zolik

9. Klubga a'zolik ixtiyoriy hisoblanadi. Klub a'zolari Universitet fakultetlari va bo'linmalarining talabalari, magistrantlari hamda doktorantlari orasidan shakllantiriladi.
10. Klub a'zolari qatoriga Universitet professor-o'qituvchilari ham kirishi mumkin.

4-bob. Klub faoliyatini tashkil etish

11. Klub rahbari ochiq ovoz berish yo'li bilan Klub a'zolari orasidan saylanadi. Saylangan rahbar nomzodi Universitet Xotin-qizlar Maslahat kengashi raisi tomonidan tasdiqlanadi.
12. Klub faoliyati bo'yicha qarorlar Klubning umumiy yig'ilishida jamoaviy ravishda qabul qilinadi. Har bir Klub a'zosi o'z fikrini bildirish, tashabbuslarni taklif qilish va ovoz berishda ishtirok etish huquqiga ega. Qaror qabul qilish uchun ovoz berishda qatnashganlarning ko'pchilik roziligi talab etiladi. Ovoz berish natijalari yig'ilish bayonnomasi bilan rasmiylashtiriladi. Bayonnomaga ovoz berishda qatnashgan Klub a'zolarining ro'yxati ilova qilinadi.
13. Klub faoliyati bo'yicha tadbirlar rejasini tashkil etish, ustuvor yo'nalishlarni belgilash va amalga oshirilgan ishlar bo'yicha hisobotlarni eshitish uchun har chorakda Klub a'zolari yig'ilishi o'tkazadi. Klub faoliyati rejasi Klub rahbari taklifi asosida Universitet Xotin-qizlar Maslahat kengashi tomonidan tasdiqlanadi.
14. Klub faoliyatini tashkil etishda Reja doirasida belgilangan vazifalarni bajarish uchun turli ishchi guruhlar tashkil etilishi mumkin. Ishchi guruhlar a'zolari Klub rahbari tomonidan ularning qiziqishlari va malakalaridan kelib chiqib ixtiyoriy ravishda tayinlanadi.

15. Klub faoliyati bo'yicha hisobot Universitet Xotin-qizlar Maslahat kengashiga taqdim etiladi va Universitet saytida e'lon qilinadi.

5-bob. Yakuniy qoidalar

16. Klubning tugatilishi, qayta nomlanishi, maqomini o'zgartirish, shuningdek, Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti Akademik kengashi tomonidan Universitet Xotin-qizlar Maslahat kengashi taklifi asosida amalga oshiriladi.

**Universitet Xotin-qizlar masalalari bo'yicha
Maslahat Kengashi**